

Sirning oshkor bo'lishi



15:00 / 19.06.2019 3155

22

Lekin Ya'qub inson edi, uning ko'ksidagi tosh bo'lagi emas balki inson yuragi edi.

Unda zarracha (bag'ri) toshlik yo'q edi.

U Yusufni eslab, yarasi (mahzunligi) yangilandi: «Oh, Yusuf!!!» dedi.

Shunda o'g'illari uni malomat qilib: «Halok bo'lguningizcha Yusufni zikr qilaverar ekansiz-da?!» deyishdi.

Ya'qub: «**Albatta, men dardu hasratimdan faqat Allohning O'ziga shikoyat qilmoqdaman va Allohdan siz bilmagan narsani bilaman**», dedi.

Ya'qub umidsizlik kufr ekanini bilar edi. Ya'qubning Allohdan umidi katta edi.

Ya'qub bolalarini Yusuf va Binyaminni izlash uchun yuborib, bunda qattiq harakat qilishga chaqirdi. Va ularni Allohning rahmatidan noumid bo'lishdan qaytardi.

Akalar uchinchi marta Misrga keldilar. Ular Yusufning huzuriga kelib, kambag'alliklaridan shikoyat qilib, rahm qilishni so'radilar.

Shu yerda Yusufning mahzunligi va muhabbati g'alayonga kelib, o'zini tiyib ololmadi. Va: «Otamning bolalari, payg'ambarning bolalari kambag'allik va musiybatlarini podshohlardan bir podshohga shikoyat qilmoqdalarmi?»

Ular haqidagi ish qachongacha maxfiy qoladi?

Ularning ahvolini qachongacha ko'rib turaman?

Qachongacha otamni ko'rmayman?

Yusuf o'zini tiyib tura olmasdan, ularga: **«Johillik paytingizda Yusufga va uning inisiga nima qilganlaringizni bilasizlarmi?»** dedi.

Akalar bu sirni ularning o'zlari va Yusufdan boshqa hech kim xabardor emasligini bilardilar. Shunda uning Yusuf ekanini bildilar.

Subhanalloh! Yusuf tirikmi? U quduqda o'lmaganmi?

Yo tavba! Yusuf Misr hokimimi?

U o'sha yerdagi xazinalarning ustidagi odammi?

U o'sha bizga yegulik buyurgan odammi?

Ularda albatta bu gapirayotgan Yusuf ibn Ya'qub ekani xususida hech shubha qolmadi!

«Ular: «E-e, hali sen Yusufmisan?!» dedilar. U: «Men Yusufman, mana bu inim. Alloh bizga marhamat ko'rsatdi. Haqiqatda kim taqvo va sabr qilsa, Alloh, albatta, go'zal ish qiluvchilarning ajrini zoe qilmagay», dedi. Ular: «Allohga qasamki, haqiqatda Alloh seni bizdan ustun qildi. Biz esa, xatokorlardan bo'ldik», dedilar».

Yusuf ularning ishlarini malomat qilmadi. Balki: **«Alloh sizlarni mag'firat qilgay. U rahm qilguvchilarning rahmlirog'idir»**, dedi.